

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ESHONKULOVA GULRUX YUNUSOVNA

FILOLOGIK YO‘NALISHDAGI TALABALARGA INGLIZ TILI
ANTROPOTSENTRIK MAQOLLARNI O‘RGATISHNING
LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Pedagogical sciences**

Eshonkulova Gulrux Yunusovna

Filologik yo‘nalishdagi talabalarga ingliz tili antropotsentrik maqollarni o‘rgatishning lingvodidaktik asoslari.....3

Эшонкулова Гулрух Юнусовна

Лингводидактические основы обучения антропоцентрическим пословицам английского языка студентов филологического направления.....25

Eshonkulova Gulrukh Yunusovna

Linguodidactic Foundations of Teaching English Anthropocentric Proverbs to Philological Students.....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....56

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ESHONKULOVA GULRUX YUNUSOVNA

FILOLOGIK YO‘NALISHDAGI TALABALARGA INGLIZ TILI
ANTROPOTSENTRIK MAQOLLARNI O‘RGATISHNING
LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PHD/Ped3221 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djusupov Maxanbet
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Isroilova Dildora Muxtorovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Babaniyazova Nargiza Po'latovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "17" yanvar soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92. Email: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1160 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "27" dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil "12" 27 dagi 16 - raqamli reyestr bayonnomasi).



L.T. Axmedova
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

A.B. Raxmonov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, ped.f.d. (DSc), dotsent

K.Sh. Muradkasimova
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, ped.f.d. (DSc), dotsent

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til o'qitish amaliyotiga murojaat qilish qadimgi madaniyat birliklarini o'rgangan holda yosh avlodni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy-madaniy kompetensiya orqali shaxsiyatni rivojlantirish hamda madaniyatning ibtidosi, ilm-fan rivojining asosiy omili hisoblangan milliy manbalar, ularning turli tillarga tarjimai hamda ular zamirida shakllangan turg'un birikmalar lingvodidaktik tadqiqotlarning diqqat markazidan o'rin olgan. Xususan, jahonning bir nechta yetakchi universitetlari, til va madaniyat markazlari, jumladan: University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Stanford University (AQSh), University of Oxford (Buyuk Britaniya), Sorbonne University (Fransiya), University of California, Berkeley (AQSH) kabilar til va madaniyatni o'zaro bog'lab ta'lim berish masalalarida tadqiqot olib bormoqda.

Dunyo aholisi etnik tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan millatlararo muloqot ko'lamining o'sishi, ikki madaniyat o'rtasidagi til aloqalarining uzviylik hodisasi keng tarqalmoqda. Antropotsentrik paradigmaga muvofiq, til kognitiv va nutqiy fikrlash faoliyatining barcha jarayonlarida so'zlovchilarning bevosita ishtirokida o'rganiladi. Dunyo xalqlari og'zaki folklorini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki xalq madaniyati va tarixi jamlangan bu sohada paremiologik birliklar lisoniy, tarixiy va madaniy jihatlarni ifodalaydi. Dunyo tilshunosligida til va xalq ma'naviy madaniyatining o'zaro aloqasi, xususan, xalq e'tiqodi, xalq og'zaki ijodiga oid g'oya va obrazlarni til birliklari yordamida voqelantirish masalasini o'rganish bo'yicha qator izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Germaniya, Rossiya, Turkiya, Finlandiya, Estoniya kabi davlatlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bunday ilmiy ishlar milliy ong stereotiplarini, turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar mentalitetining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi paremiologik birliklarni o'rganishga yordam beradi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida xalqimizning yuksak badiiy ijodiyoti asosida yaratilgan nomoddiy madaniy meros durdonalarini asrab-avaylash, xalq og'zaki ijodining qadimiy an'alarini tiklash va milliy qadriyatlarni izchil rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son qarorida ta'limning barcha turlari uchun nomoddiy madaniy meros sohasi bo'yicha ta'lim standartlari va fan dasturlari, darsliklar, o'quv-qo'llanmalar, ilmiy-metodik materiallar yaratish va ilmiy izlanishlar olib borish kabi vazifalar qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son qaroridagi 8-ilovada 2024-yilda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni yanada kengroq qo'llab-quvvatlash bo'yicha yo'l xaritasida "nomoddiy madaniy merosimizning unutilish arafasida turgan betakror so'z-iboralarini to'plash asosida maqol, matal, afsona, rivoyat va hikoyalar to'plamlarini nashr etish va bu sohalarda ilmiy izlanishlar olib borish"¹ kabilar to'g'risida chora-tadbirlar ko'rilishi haqida fikrlar bildirilgan va unga mas'ul sifatida Madaniyat vazirligi hamda Fanlar akademiyasi tanlangan. Xalq og'zaki ijodining

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-405-son qarori.

mahsuli bo'lgan maqollarni chuqur o'rganib, yangicha tadqiqot metodlari bilan ta'limga joriy etish hozirgi davr ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ingliz tili antropotsentrik maqollarining tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishi har ikki mamlakat xalq og'zaki ijodi uchun zarur bo'lgan umumiy xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratadi. Bu borada xorijiy maqollar o'rganilayotgan tilda nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni oshirishga, madaniyat, tarix, xalq hayoti bilan tanishishga, tillararo va madaniyatlararo aloqalarni ongli ravishda amalga oshirishda hamda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini yaxshilashga yordam beradi. Demak, ingliz tili antropotsentrik maqollarini metodik jihatdan tatbiq etish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur ilmiy tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasi", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasidagi "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ 3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi VMQ 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 10-oktabrdagi VMQ 816-son "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida"gi qarorlari hamda shu sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini takomillashtirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tilni o'qitish masalalari G.X.Bakiyeva, M.Djusupov, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, T.K.Sattorov, D.Djumanova, D.U.Xoshimova, F.M.Rashidova, F.Sh.Alimov, S.Nazarova, B.G.Kulmatov, I.M.Tuxtasinov, M.A.Nazarova, D.A.Tadjibayeva, K.Sh.Muradkasimova, A.B.Raxmonov² kabi tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan.

² Бакиева Г.Х. Преодоление звуковой интерференции при обучении русскому произношению студентов узбеков (на материале консанантизма): автореф. дис. канд.пед.наук. – Тошкент, 1987. – 21 с.; Джусупов М., Алибекова К.Е., Мажитаева Ш. Специальная лексика и пословицы. – Ташкент: Издательство Meriyus, 2013. – 138 с.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. –Тошкент: Фан ва технология, 2013. – 200 с.; Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 431 b.; Джуманова Д.Р. Фонологическая модель слова в условиях языкового контактирования: дис. докт. фил.наук. – Ташкент, 2016. – 266 с.; Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2007. – 209 с.; Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка): дис. ..док.пед.наук. – Т., 2017. – 309 с.; Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш (нофилологик факультетлар мисолида): автореф. дис. ... пед. фан. док. –Тошкент, 2018. – 44 б.; Назарова С. Хитой тилига ўқитишда талабаларнинг чет тили

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlari I.M.Verashagin, V.G.Kostomarov, Y.I.Passov, V.P.Ostrogorskiy, G.V.Kolshanskiy, V.V.Vorobyev³ kabilar chet tilini o'qitish va uning didaktik xususiyatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Maqollar ustida V.Mieder, N.Norricks, A.Taylor, G.Lakoff, E.B.Richmond, P.Seitel, G.Milner, A.V.Kunin, I.V.Dal, G.L.Permakov, V.V.Vinogradov, V.Ivanova, P.U.Bakirov, R.U.Madjidova, N.B.Saparova, F.Azizova, K.E.Alibekova, P.J.Nazarov, N.K.Abbosova, Sh.M.Boyxanov, Sh.Sh.Qalandarov, B.M.Jo'rayeva, D.S.Turdaliyeva, M.A.Temirova, D.A.Tosheva⁴ kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston

лексик компетенциясини такомиллаштириш: автореф. дис. ... пед. фан.докт. – Т., 2018. – 40 б.; Кулматов Б.Г. Инглиз тилини инновацион технологиялар ёрдамида ўқитишда CEFR мезонларидан фойдаланишнинг назарий асосларини такомиллаштириш: автореф. дис. ...пед. фан. док. – Т., 2018. – 45 б.; Тухташинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш: автореф. дис. ... пед. фан. докт. – Т., 2018. – 65 б.; Назарова М.А. Инглиз тилидаги матнларни ўқишда талабаларни лексик полисемияга ўргатишни такомиллаштириш: автореф. дис. ... пед. фан.докт. – Т., 2018. – 42 б.; Таджикибаева Д.А. Формирование иноязычной коммуникативной компетенции у детей младшего школьного возраста (на примере немецкого языка): дис...док.фил.наук. – Ташкент, 2020. – 138 с.; Мурадқасимова К.Ш. Бўлажак мутахассисларнинг баҳолаш компетенциясини такомиллаштириш концепцияси: Пед. Фан. док. дис. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2022. – 200 б.; Раҳманов А.Б. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей русского языка в самообразовательной деятельности.: Авторефер. Дис. ...док. пед. наук. – Ташкент, 2022. – 82 с.

³ Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура, - М.: Русский язык, 1990.-246 с.; Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. - 2-е издание. - М.: Просвещение, 1991. - 223 с.; Острогорский, В.П. Выразительное чтение. Москва: Издательство Юрайт, 2024. – 128 с.; Колшанский Г.В. Коммуникативная функция и структура языка. 3-е изд. – Москва: Издательство ЛКИ, 2007. – 176 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы.: Монография. – М.: Изд-во РУДН, 1997. – 331 с.

⁴ Mieder W. Proverbs: A handbook. – London: Greenwood Press, 2004. – 328 p.; Norrick N. R. How proverbs mean: Semantic studies in English proverbs. – Berlin: Mouton, 1985. – 224 p.; Taylor A. The proverb. – Cambridge, Mass: Harvard University Press, 1931. – 223 p.; Lakoff G., Turner M. More Than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. University of Chicago Press, 1989. – 230 p.; Richmond E. B. Utilizing proverbs as a focal point to cultural awareness and communicative competence: Illustrations from Africa. Foreign Language Annals, 20(3), 1987. – p. 213-216.; Seitel P. Proverbs: A social use of metaphor. Dans W. Mieder, A. Dundes, The wisdom of many: Essays on the proverb. – Madison: The University of Wisconsin Press, 1994. – p. 122-139.; Milner G. The Quartered Shield: Outline of a semantic taxonomy. – London: Routledge, 2004. – p. 243-269.; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс, 2005. – 488 с.; Даль В.И. Пословицы русского народа. – М.: Изд. Астрель, АСТ, 2000. – 752 с.; Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – 236 с.; Виноградов В.В. Лингвистические аспекты обучения. – Москва: Издательство МГУ, 1972. – 57 с.; Ivanova E. V. The World in the English and Russian Proverbs: textbook. – SPb.: Publishing House of Saint-Petersburg University, 2006. – 280 p.; Бакиров П. Пословицы-энциклопедия народной жизни. – Ташкент: Академнашр, 2018. – 113 б.; Маджидова Р.У. Антропоцентрические пословицы: семантика и лингвостатистика (на материале узбекского и русского языков): дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 2008. – 150 с.; Сапарова Н.Б. Лингводидактические основы обучения студентов-казахов номинацентрическим пословицам русского языка: автореф.дисс...канд.пед. наук. – Ташкент, 2001. – 168 с.; Азизова Ф.С. Методика обучения переводу английских фразеологических единиц на узбекский язык. Вестник Университета Российской академии, 2010. – с. 74-76.; Алибекова К.Е. Обучение тюркоязычных студентов медицинской лексике и пословицам русского языка. базовыми концептами «Здоровье», «Гигиена»: дис. ... канд.пед.наук. –Ташкент, 1993. – 177 с.; Назаров П.Ж. Бакалаврлар тайёрлашнинг куйи босқичида немис тилини коммуникатив методикаси асосида ўқитишда мақоллардан фойдаланиш.: Автореф. дис. ...пед.фан.докт. – Т., 2004. – 23 б.; Аббасова Н.К. Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларига инглиз тили мақол ва маталларини ўқитиш методикаси.: Автореф. дис. ... пед. фан.докт. – Т., 2019. – 56 б.; Boyxanov Sh.M. Ingliz tili amaliy kursida talabalarning paremiologik kompetensiyasini rivojlantirish: avtoref. dis. ...ped. fan. dok. –Т., 2023. – 45 б.; Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфимизацияси: автореф. дис. ... пед. фан.докт. –Т., 2019. – 44 б.; Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: филол.фан.доктори (DSc) дис... – Самарқанд, 2019. – 237 б.; Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари: филол. фанлари фалсафа д-ри... дис. – Фарғона, 2018. – 144 б.; Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси: филол. фанлари фалсафа д-ри... дис. – Тошкент, 2018. – 166 б.; Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис... – Т.: 2017. – 134 б.

davlat jahon tillari universiteti “Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi” ilmiy tadqiqot institutining ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi filologik yo‘nalishdagi talabalarga ingliz tili antropotsentrik maqollarning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xorijiy va mahalliy adabiyotlardagi antropotsentrik maqollarning lingvodidaktik xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish;

ingliz va o‘zbek tillari antropotsentrik maqollarining o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash va tasniflash;

o‘rganilayotgan ilmiy muammo doirasida ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini tahlil qilish;

paremiologik nutq interferensiyasini tahlil qilish va tavsiflash, ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarni bilish bo‘yicha filologik yo‘nalish talabalarining bilim darajasini aniqlash;

filologiya yo‘nalishlarining o‘zbek tilida so‘zlashuvchi yuqori kurs talabalariga ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarni o‘rgatish bo‘yicha mashqlar tizimini ishlab chiqish;

pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish (tashkil etish, bosqichlar, sifat va miqdor natijalari)

Tadqiqotning obyekti sifatida filologik yo‘nalishdagi yuqori kurs talabalariga ingliz tili maqollarni o‘qitish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini filologik yo‘nalishdagi talabalarga ingliz tili antropotsentrik maqollarni o‘qitish mazmuni, vositalari va metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: nazariy metodlar (tahliliy-sintetik, qiyosiy); diagnostik metodlar (so‘rov, kuzatish, test); prognostik metodlar (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish); pedagogik eksperiment metodlari; matematik statistik metod (natijalarni statistik qayta ishlash) metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tilidagi antropotsentrik maqollarning universal va o‘ziga xos xususiyatlarini farqlash tizimi maqollarning leksik-semantik tuzilishi, stilistik qo‘llanilishi va morfologik tuzilmasini tahlil qilish orqali har bir tilda mavjud bo‘lgan madaniy va lingvistik universallarni ajratishga qaratilgan tasniflash mezonlari ishlab chiqilgan holda takomillashtirilgan;

paremiologik kompetensiyasini takomillashtirishning besh bosqichli “TTQTM (*tanishtirish-tushunish-qo‘llash-tahlil-malaka*)” mexanizmi *maqolni bilish, maqolni qo‘llash* hamda *maqolni o‘rgatish* jarayonlariga *o‘qituvchi-talaba, talaba-o‘qituvchi* uzviylikni o‘zaro vertikal integratsiya qilish orqali yaratilgan;

filologik yo‘nalishdagi yuqori bosqich talabalariga ingliz tili antropotsentrik maqollarni *interaktivlik, strukturaviylik, tahliliy, maqsadlilik* xususiyatlarini mashqlarda aks ettirishda tillar aralashuvi, ona tilidagi muqobiliga tayanish, talabalarni sotsializatsiya (ijtimoiy) qilish hamda vaziyatlilik tamoyillariga ustuvorlik berish asosida didaktik va metodik ta‘minot takomillashtirilgan;

filolog talabalarining ingliz tili antroposentrik maqollarni bilish darajasini aniqlash mezoni maqollarni leksik, stilistik, semantik hamda lingvomadaniy qo‘llash darajalariga ajratish hamda Evropa kredit transfer tizimi (ECTS-European

Credit Transfer System) va CEFR diskriptorlarini gorizontal uzviylashtirish natijasida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz tilidagi antropotsentrik maqollardan og‘zaki va yozma nutqda foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar tizimi ishlab chiqilgan;

talabalar uchun ingliz tilidagi antropotsentrik maqollar bo‘yicha testlar banki tashkil etildi;

ingliz tilidagi antropotsentrik maqollar bo‘yicha metodik ta‘minot mavzulari, dars (mashg‘ulot) ni tashkil etishga qaratilgan dars ishlanmalari hamda o‘quv topshiriqlar keltirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo‘llanilgan ilmiy yondashuvlar, tahlil va o‘quv eksperimentini o‘tkazish usullari, lingvodidaktik va lingvometodik qoidalar, tahlil qilingan o‘quv-lisoniy materialning katta hajmi, ilmiy tadqiqot natijalarining ishning nazariy qoidalariga muvofiqligi, mahalliy va xorijiy nashrlarda chop etilganligi, ishlab chiqilgan o‘qitish metodikalari va tavsiyalarning oliy ta‘lim muassasalari o‘quv jarayoniga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan xulosa va tavsiyalar filologik yo‘nalishdagi talabalarga ingliz tili antropotsentrik maqollarining lingvodidaktik asoslari mazmuni hamda talabalarda lug‘atni rivojlantirish, maqollarni o‘rganish orqali dunyoqarashini kengaytirishga, mantiqiy o‘ylashni rivojlantirishga, fikr almashish, ijodiylik hamda muomala qobiliyatlarini kengaytirish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ingliz tili antropotsentrik maqollarini o‘qitish metodikasining ilmiy asoslarini ishlab chiqish, oliy ta‘lim muassasalarining filologik yo‘nalishidagi yuqori kurslari uchun “Til o‘rganilayotgan aspektlari” fanidagi “Leksikologiya” va “Stilistika” modullari uchun qo‘llanmalar yaratishda, maxsus kurslar hamda seminarlarni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Filologik yo‘nalishdagi talabalarga ingliz tili antropotsentrik maqollarni o‘rgatishning lingvodidaktik asoslari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot asosida:

ingliz va o‘zbek tilidagi antropotsentrik maqollarning universal va o‘ziga xos xususiyatlarini farqlash tizimi maqollarning leksik-semantik tuzilishi, stilistik qo‘llanilishi va morfologik tuzilmasini tahlil qilish orqali har bir tilda mavjud bo‘lgan madaniy va lingvistik universallarni ajratishga qaratilgan tasniflash mezonlari ishlab chiqilgan holda takomillashtirilganiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan AL-412104512 raqamli “O‘zbekistonning geografik obyektlari uchun ko‘p tildagi elektron lug‘at yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan o‘quv resurslarini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 21-iyundagi 04/355-son ma‘lumotnomasi). Natijada tarkibida geografik obyektlar ishtirok etgan ingliz va o‘zbek tili antropotsentrik maqollar haqidagi elektron lug‘at yaratish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur mazmunini takomillashtirishga erishilgan;

paremiologik kompetensiyasini takomillashtirishning besh bosqichli “TTQTM (*tanishtirish-tushunish-qo'llash-tahlil-malaka*)” mexanizmi *maqolni bilish, maqolni qo'llash* hamda *maqolni o'rgatish* jarayonlariga *o'qituvchi-talaba, talaba-o'qituvchi* uzviylikini o'zaro vertikal integratsiya qilish orqali yaratilgani borasidagi natijalardan O'zbekiston Milliy universitetida amalga oshirilgan FZ-2020010829 raqamli “Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari” mavzusidagi amaliy loyihada samarali foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 15-maydagi 04/11-4261-son ma'lumotnomasi). Natijada, yaratilgan mexanizm dastur bo'yicha qo'yiladigan talablarni mazmunan boyitishga xizmat qilgan;

filologik yo'nalishdagi yuqori bosqich talabalariga ingliz tili antropotsentrik maqollarning *interaktivlik, strukturaviylik, tahliliy, maqsadlilik* xususiyatlarini mashqlarda aks ettirishda tillar aralashuvi, ona tilidagi muqobiliga tayanish, talabalarni sotsializatsiya (ijtimoiy) qilish hamda vaziyatlilik tamoyillariga ustuvorlik berish asosida didaktik va metodik ta'minot takomillashtirilganligi to'g'risidagi natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida amalga oshirilgan Yevropa ittifoqining “Erasmus+International KA107 credit mobility Key action 1-mobility for learners and staff-Higher education student and staff mobility” mavzusidagi innovatsion loyihasida keng foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 15-oktyabrdagi 04/1-2868-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida samarador takliflar ishlab chiqilgan;

filolog talabalarning ingliz tili antroposentrik maqollarni bilish darajasini aniqlash mezonini maqollarni leksik, stilistik, semantik hamda lingvomadaniy qo'llash darajalariga ajratish hamda *Yevropa kredit transfer tizimi* (ECTS-European Credit Transfer System) va *CEFR* deskriptorlarini gorizontol uzviylashtirish natijasida ishlab chiqilganligiga oid natijalaridan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti AQSh Davlat Departamenti va O'zbekistondagi AQSh elchixonasi bilan hamkorlikda 2022-2024-yillarda bajarilishi mo'ljallangan SUZ80021GR3106 raqamli “The English Access Microscholarship Program” “O'zbekiston oliy va o'rta-maxsus ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va savodxonligini oshirish” mavzusidagi innovatsion loyihada keng foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 22-noyabrdagi 01/743-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati mazmunga asoslangan yondashuv va FSMU texnologiyasi asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining asosiy natijalari 6 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta, ulardan 5 ta respublika va 2 ta xalqaro maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O'rganilayotgan va ona tilidagi maqollar lingvistik va metodik izlanishlarning obyekti sifatida”** deb nomlanib, ushbu bobda maqollarning paremiologik birligi sifatidagi mazmun va mohiyati, ingliz va o'zbek tilidagi antropotsentrik maqollarning o'xshash va farqli jihatlari hamda xorijiy tillarda antropotsentrik maqollarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar yoritilgan.

Xorijiy tilda maqollarni o'qitish, zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadigan muammolardan biridir. Ushbu masala nafaqat til o'rganuvchilarning lingvistik kompetensiyasini oshirish, balki ularning madaniy bilimlarini kengaytirish hamda kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Maqollar tildagi paremiologik birliklar hisoblanib, ularni to'g'ri anglash va qo'llash, o'rganilayotgan tilning madaniyati va urf-odatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

“Paremiologiya paremalarni o'rganadigan fan sohasi. Parema – bu ma'lum bir tilda avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan turg'un ibora, maqol, matal. Parema (yunoncha *paroimia* – ramzli hikoya, masal) – dunyoning barcha tillariga xos bo'lgan universal hodisa”⁵.

Paremiologiyaga ilmiy ishda quyidagicha ta'rif berilgan: paremiologiya - bu madaniyat tushunchalarini o'z ichiga olgan, odamlarning dunyoqarashini aks ettiruvchi, uslubiy bo'yoqdor birliklar bilan ifodalangan va pand-nasihath xususiyatiga ega bo'lgan nutqiy birliklarni o'rganuvchi yo'nalishdir.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslikning bir bo'limi hisoblangan paremiologiya qisqa jumlar va badiiy matnlar, murakkab klishe'larni o'rganish bilan shug'ullanuvchi fanga aylandi. Qo'shma klishe'lar tillarda o'z aksini topgan bo'lib, ular kamida ikki so'zdan tashkil topgan. Jumladan, P.U.Bakirov ta'kidlaganidek, G.L.Permyakovning fikricha, “murakkab klishe'larga: *maqollar, matallar, frazeologizmlar, topishmoq, mualliflik va xalqning hikmatli so'zlari va boshqalar*” kiradi⁶.

B.Taylor va G.Whitelarning fikriga binoan, “maqollarga izoh berish go'yatda murakkab masaladir. Ular ko'rsatgan sabablar quyidagicha: berilgan iboraning maqol yoki maqol emasligini tushuntirib bo'lmas asoslarga ega, lekin ma'lum bir til foydalanuvchilari biror bir gapning maqol yoki maqol emasligini osongina ajratadilar”.

Maqol vaziyati esa maqol ifodalagan vaziyatdir. P.Grzybekning ta'kidlashicha, “maqollarni muvaffaqiyatli qo'llash ikki xil abstraksiya jarayonini o'z ichiga oladi.

⁵ Madvaliev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2020. – B. 222.

⁶ Бакиров П.У. Миллий ғоя тарғиботида ўзбек халқ мақолларидан фойдаланиш. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б. 12.

Uning soʻzlariga koʻra, birinchi jarayon “umumiy (paremik) maʼnoni chiqarishni oʻz ichiga oladi. . . maqol holatining denotativ matnidani bizga namuna vaziyatni beradi, ikkinchi jarayon esa “vaziyat modeli deb atash mumkin boʻlgan umumiy tip (yoki sinf) holatlariga”⁷ mos yozuvlar vaziyatni belgilashdan iborat.

P.Grzybek tomonidan ilgari surilgan maqollarning vaziyatga qarab qoʻllanilishi ustuvor ahamiyatga ega ekanligi haqidagi gʻoya asosiy tamoyil situativlik tamoyili ekanligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda maqollarni tasniflashning bir qancha turlari mavjud. G.L.Permyakov maqollar tasniflanishidagi eng muhim jihatlariga toʻxtalib oʻtgan, jumladan: *alifbo tartibida, tayanch soʻzlarga koʻra, monografik, genetik hamda mavzuli*.

Tadqiqot davomida olim P.U.Bakirovning maqollarni xususiyatlarga boʻlib oʻrganish nazariyasiga asoslangan holda, quyidagi xususiyatlar keltirib oʻtildi: *xalqchillikning namoyon boʻlish xususiyati, kelib chiqishining qadimiylilik xususiyati, hikmatlilik xususiyati, anonimlik holatining namoyon boʻlish xususiyati, metaforalik xususiyati, emotsionallik xususiyati, allegoriyalik xususiyati, obrazlilik va shoironalik xususiyati, strukturaviy-semantik jihatdan toʻliqlik xususiyati*.

Maqollarni oʻrganish jarayonida ulardan leksikani oʻrgatish, tilning grammatik jihatlarini namoyish etish va qoʻllash, obrazli tafakkurni rivojlantirish, shuningdek, talaffuzni oʻrgatish va qoʻyish kabi taʼlimiy maqsadlar uchun amaliy vositalar sifatida foydalanish mumkin.


Antropotsentrik paradigmada tildagi shaxs va shaxsdagi til tahlil qilinadi, I.A.Boduen de Kurtenening fikriga koʻra, “til faqat individual ongda, qalbda, psixikada mavjud maʼlum bir tilshunoslikni tashkil etuvchi shaxslar yoki jamiyatda shakllanadi”⁸. Antropotsentrik maqollarda shuni koʻrishimiz mumkinki, ularda chuqur mazmun, har bir xalqning mehnatkash xalq donoligi, uzoq asrlik hayot tajribalari, milliy anʼanalari va mehnat natijalari oʻz ifodasini topgan.

Ingliz va oʻzbek tilidagi antropotsentrik maqollar oʻrtasidagi oʻxshashliklarga toʻxtaladigan boʻlsak, ular orasida oʻxshashliklarning nomlanishi orqali ham koʻrishimiz mumkin. Oʻzbek tilida “**maqol**”: *zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli soʻz, oqinlar soʻzi va otalar soʻzi, donolar yoki donishmandlar soʻzi, mashoyixlar soʻzi, tanbeh*. Ingliz tilida “**proverb**”: *adages, precepts, truisms, saws, mottoes, maxims, dictums*.

Shuningdek, ushbu bobda ingliz va oʻzbek tili antropotsentrik maqollarining oʻxshash va farqli tomonlari mavjud tadqiqotlar oʻrganilgan holda takomillashtirilib, mualliflik tasnifi berib oʻtildi hamda ular ikki tildagi antropotsentrik maqollar misolida izohlandi (1-rasm):

⁷ Grzybek P. Semiotic and Semantic Aspects of the Proverb. In Hrisztalina Hrisztova-Gotthardt, Melita A. V. Introduction to paremiology: A comprehensive guide to proverb studies. – Warsaw Berlin: De Gryuter Open, 2014. – p 68-111.

⁸ Бодуэн де Куртенэ И.А. Общее языкознание. Избранные труды. – Москва: Издательство Юрайт, 2017. – С. 71.



1-rasm. Ingliz va o'zbek tillaridagi antroposentrik maqollarning o'xshash va farqli jihatlari tasnifi

Dissertatsiyaning “**Ingliz tili darsliklari va dasturlari tahlili va og‘zaki nutq interferensiyasi muammolari**” deb nomlangan ikkinchi bobida, o‘zbek auditoriyasining talabarlari uchun ingliz tili darsliklarida antroposentrik maqollarning o‘rni va ahamiyati, o‘zbek talabalarining ingliz tili nutqidagi paremiologik interferensiyasini bartaraf etish usullari hamda o‘zbek auditoriyasi talabalarining ingliz tili antroposentrik maqollarini bilish darajalari kabi masalalar o‘z aksini topgan.

Maqollarning o‘qitilishi til o‘rgatuvchilarning maqsadli va tizimli yondashuvini talab qiladi. Bu jarayonda maqollarni tanlash, ularni ta‘lim jarayoniga moslashtirish, o‘quvchilarning psixologik va lingvistik xususiyatlarini hisobga olish kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu maqollarning semantik va pragmatik xususiyatlarini tushuntirish, ulardan kontekstual foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, maqollarni nutqda qo‘llash uchun o‘quv vaziyatlarini yaratish orqali ishlab chiqilgan maqollarni o‘qitish metodikasi bilan muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Tadqiqot davomida darslik va dasturlar mazmuni o‘rganilayotgan ilmiy-metodik muammo aspektida tahlil qilindi.

Avvalo, oliy ta‘limni tashkil etishda asosiy huquqiy-me‘yoriy hujjat hisoblanuvchi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrdagi 43-son bilan ro‘yxatga olingan Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 19-oktabrdagi №35-2021-buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti” tahlil qilindi. Keyingi tahlil sifatida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Ilmiy-metodik kengashning 2021-yil 29-oktabr-

dagi yig'ilish (3-son bayonnomasi) qarori bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan "Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida chet tili (ingliz, fransuz, nemis va b.) fanining uzviyligini ta'minlash konsepsiyasi" dasturi tahlilga tortildi.

Navbatdagi tahlil qilingan me'yoriy hujjat esa, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023-yil 7-avgustdagi №344-buyrug'i bilan tasdiqlangan 60230100 – filologiya va tillarni o'qitish (roman-german filologiyasi) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari hisoblanib, 2-bo'limida bakalavrlarning 2.2.Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarda kasbiy kompetensiyalar yoritilgan va unda "O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimida chet tilini o'qitishdan maqsad ta'lim oluvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda maishiy, ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat yuritishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyani (uning tarkibiy qismlari hisoblanuvchi lingvistik, ijtimoiy lingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy madaniy, ijtimoiy va o'quv-anglash kompetensiyalari asosida) shakllantirishdan iborat"⁹ deb berilgan va chet tili kommunikativ kompetensiyasida tili o'rganilayotgan davlatning madaniyati bilan tanishish shu orqali o'zining mamlakat madaniyatini yaxshiroq tushunib yetish va muloqot jarayonida ularni qo'llay olishlari nazarda tutilgan O'rganilayotgan til nazariy aspektlari faniga umumiy 540 soat ajratilgan, shundan 270 soati auditoriya mashg'ulotlariga, mustaqil ta'lim soatiga 270 soatga teng taqsimlangan. "O'rganilayotgan til nazariy aspektlari" fani tarkibida 5 ta modul – "Leksikologiya", "Nazariy fonetika", "Nazariy grammatika", "Stilistika" va "O'rganilayotgan til tarixi" o'qitiladi.

60230100 – filologiya va tillarni o'qitish (roman-german tillari) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturida ham 1.19 O'TNA 15-718 "O'rganilayotgan til nazariy aspektlari" faniga umumiy 540 soat ajratilgan bo'lib, shundan 60 soati tadqiqot mavzusi o'rganilayotgan fan leksikologiyaga ajratilgan. "Ingliz tili leksikologiyasi" 4-kurslar uchun mo'ljallangan, 7-semestrda o'qitiladi, 60 soat ajratilgan: 30 soat nazariy, 30 soat amaliy darslardan iborat.

Ushbu fan dasturida, asosiy adabiyot sifatida 2 ta asosiy darslik tahlil qilindi: Muminov O.M. *"Lexicology of the English language"* hamda Ginzburg R.Z., Xidekel S.S., Knyazeva G.Y., Sankin A.A. *"A Course in Modern English Lexicology"*.

Tahlillar jarayonida o'quv-uslubiy majmua va asosiy darsliklarda maqollarni o'rgatishga bag'ishlangan mavzular kam yoritilganligi aniqlandi. Shuni inobatga olgan holda, mustaqil ta'lim uchun ishlab chiqilgan metodik ta'minot taqdim etildi, har bir mavzu bo'yicha topshiriqlar va mashqlar taklif etildi.

Tadqiqot davomida filolog-talabalarda ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarni o'rganish jarayonida yuzaga keladigan nutqiy interferensiya o'rganildi va uni bartaraf etish yo'llari taklif etildi.

Ingliz olimi, lug'atshunos D.Crystal "A Dictionary of Linguistics and Phonetics" lug'atida interferensiya terminini quyidagicha ta'riflaydi: "sotsiolingvistika va xorijiy tillarni o'rganishda foydalaniladigan termin, bu termin

⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023-yil 7-avgustdagi №344-buyruq bilan tasdiqlangan 60230100 – filologiya va tillarni o'qitish (roman-german filologiyasi) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari. – B. 7.

bir tilga boshqa til bilan aloqa natijasida kiritilgan xatolarni anglatadi; bu shuningdek, salbiy o'tkazish, deb ham ataladi. Xato manbayi eng ko'p uchraydigan holat xorijiy tilni o'rganish jarayonida bo'ladi, bu yerda ona tili aralashadi; lekin aralashish boshqa aloqa vaziyatlarida ham (masalan, ko'p tillilikda) yuz berishi mumkin"¹⁰. Yuqoridagi ta'rifga asoslanib, Crystal interferensiya hodisasi nafaqat til o'rganish jarayonida, balki ijtimoiy muhit bilan til o'rtasidagi bog'lanish jarayonida ham vujudga kelishini ta'kidlaydi.

Rus olimi L.L.Nelyubin "Толковый переводоведческий словарь" lug'atida ushbu termiga ikki xil ta'rif beradi: "1. Ona tilining xususiyatlarini o'rganilayotgan chet tiliga o'tkazish. 2. Shakllangan malakalarni salbiy belgisi bilan yangi hosil bo'lgan ko'nikmalar bilan qoplash; salbiy transfer bilan bir xil"¹¹. L.L. Nelyubin interferensiyaning umumlisoniy va grammatik asosga ega bo'lgan turlarini ajratib ko'rsatadi. Ikkinchi tildagi nutqqa ko'nikma va malakalarni salbiy va ijobiy ko'chirish xususiyatlarini tahlil qilish asosida yangi chet tili nutqiy harakatlarining shakllanishi haqida so'z yuritadi.

A.Xojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da esa "ona tiliga xos xususiyatlarni o'rganilayotgan tilga o'tkazish (odatda, bu qardosh bo'lmagan til)"¹² deb ta'riflanib, bu, umuman olganda, nutqiy interferensiyaning an'anaviy tushunchasiga mos keladi.

Yuqorida berilgan ta'riflarga asoslangan holda, mualliflik yondashuvi asosida interferensiya so'zini quyidagicha ta'rifladik: *Interferensiya xorijiy tilni o'rganish jarayonida ona tilining hamda til va madaniyatning bir-biriga bog'liq bo'lgan xususiyatlarini o'rganilayotgan tilga ko'chirish, aralashtirish jarayoni hisoblanib, bu jarayon natijasida til o'rganishdagi lingvistik hamda lingvomadaniy qiyinchiliklar vujudga keladi.*

Tadqiqot davomida M.Djusupov¹³ tomonidan taklif etilgan paradigmatic va sintagmatik interferensiya tasnifiga tayangan holda ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarni o'rganish jarayonida o'zbek tilida so'zlashuvchi talabalarda yuzaga keladigan interferensiyaning quyidagi tasnifi keltirilgan (1-jadval).

Tadqiqot davomida talabalarining ingliz tili antropotsentrik maqollarni o'rgatish jarayonida lingvistik hamda lingvomadaniy interferensiyasi aniqlanib, yechimlar berish orqali talabalarining paremiologik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmi aniqlandi (2-rasm):

Dissertatsiyada talabalarining ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarni bilish darajasini aniqlash tizimi (ikki qismda) taqdim etilgan. Birinchi qismda bilish darajasini aniqlash maqsadida talabalarga anketa-so'rovnomalar tarqatildi. Ikkinchi qismda esa uch bosqichli aniqlovchi kesim o'tkaziladi.

Aniqlovchi kesimni o'tkazish uchun talabalarga uch bosqichli testlar taklif etildi. Aniqlash kesimida 2023-2024 o'quv yillari davomida tabiiy sharoitda amalga oshirildi hamda umumiy 140 nafar respondentlar ishtirok etdi.

¹⁰ Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics, 6th edition. Blackwell Publishing Ltd, 2008. – P. 249.


¹¹ Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь. Третье издание. – Москва: Издательство Флинта, 2003. – С. 66.

¹² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б. 45.

¹³ Джусупов М. Звуковые системы русского и казахского языков. Слог. Интерференция. Обучение произношению. Ташкент: Изд-во «Фан», 1991. – С. 147-175.

O‘zbek tili auditoriyasi talabalarining ingliz tili darslarida antropotsentrik maqollarni o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan interferensiya turlarini tasniflash

INTERFERENSIYA TURI	TAKLIF ETILGAN YECHIMLAR
Lingvistik interferensiya	
Leksik-semantik interferensiya	– kontekstual leksik mashqlar (contextual lexical exercises); – maqollarni tahlil qilish (analysis of proverbs); – tarjima mashqlari (translation exercises); <i>“rearranging words”, “making sentences based on proverbs”, “phoneme identification and segmentation exercises”, “scrambled sentences”.</i>
Morfologik interferensiya	– morfologik qoidalarni o‘rganish (learn morphological rules); – jumlani tuzish mashqlari (sentence construction exercises); <i>“compare proverbs (targeted and native language proverbs)”, “fill in the blanks”, “creating stories with proverbs”, “translation drills” hamda “language swapping conversations”.</i>
Sintaktik interferensiya	– gap tuzish mashqlari (sentence structure exercises); gaplarni o‘zgartirish (restructure the sentences); – gap tarjima qilish va gap to‘ldirish kabi faoliyatlar; <i>“completing sentences with proverbs”, “translation of proverbs”, “create situations related to proverbs and write them in the form of a story or essay” “analytical exercise on working with proverbs”.</i>
Lingvomadaniy interferensiya	
Madaniy qadriyatlarga bog‘liq interferensiya	– ko‘p madaniyatli kontekstga ega materiallarni dars jarayonida qo‘llash; – antropotsentrik maqollar madaniy tushunchalar orqali qanday yaratilganini o‘rgatish;
Madaniy stereotiplarga bog‘liq interferensiya	– madaniyatga xos so‘zlarning maqollarda aks etishini tahlil qilish mashqlaridan foydalanish;



2-rasm. Paremiologik kompetensiyani takomillashtirish mexanizmi

Lingvistik materialni o'zlashtirish darajasini aniqlash bo'yicha qo'llanilgan birinchi bosqich vazifasi talabalarning ingliz antropotsentrik maqollari haqidagi bilimlarga egaligini, paremiologik birliklardan antropotsentrik maqollarning leksikasiga oid savollarga javob berishlarini aniqlash bo'ldi. Masalan: *Read the words and their definitions below, fill in the missing words in the given proverb with suitable words and translate the proverb.* ("Happy": for general use, everyday situations.; "Joyful": expressing strong emotions, often associated with special or significant events.; "Cheerful": expresses a person's natural mood or positive attitude, often used in conversation.) **1. _____ is he that is _____ in his children.**

Birinchi bosqichda quyidagi kamchiliklar aniqlandi: *matnsiz berilgan savollarga to'liq javob bera olmaslik; atamalarning ma'nosini tushunmaslik; ingliz tili maqollarida so'zlarning ma'nosini bilmaslik; maqollarning lingvomadaniy xususiyatlarini izohlay olmaslik.*

Ikkinchi bosqichda esa ingliz tilidagi antropotsentrik maqollar bo'yicha bilim darajasini aniqlash amalga oshirildi: *Continue the given anthropocentric proverbs; Which of the given proverbs are explicitly anthropocentric proverbs?; Which of the given proverbs are implicitly anthropocentric proverbs?; Literal and figurative translations of "When in Rome, do as the Romans do";*

Ushbu bosqich natijalarini tahlil qilish jarayonida talabalarda ingliz tilidagi antropotsentrik maqollar leksikasi va semantikasi bo'yicha bilim va ko'nikmalar deyarli yo'qligi aniqlandi. Eng yuqori chastotali xatolarga quyidagilar kiradi: *ingliz tili maqollarning stilistik jihatini bilmaslik; ingliz tili maqollarning semantik ma'nosini bilmaslik; ingliz tili antropotsentrik maqollarning ochiq va yashirin hollarda kelishligini bilmaslik (yani terminlarni bilmaslik); ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarni o'zbek tiliga tarjima qilishni bilmaslik.*


Uchinchi bosqich aniqlash kesimini o'tkazish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilindi: *Read the following sentences and identify the anthropocentric proverbs used in each context; Match the proverbs with the correct meanings; Read the given anthropocentric proverbs and then explain what each proverb means in the context of human behavior and relationships; Which of the following proverbs is defined by the human factors; Choose an appropriate anthropocentric proverb from the given list and complete the sentences to demonstrate their usage in context;*

Yakuniy bosqichda quyidagi kamchiliklar aniqlandi: *talabalarda tanqidiy fikrlashning sustligi; jummalarni yarata olmaslik; eslab qolish qobiliyatining pastligi; ingliz maqollarini bilmaslik;*

Har bir oliy ta'lim muassasasi (uchta OTM) doirasida talabalarning ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarni bilish darajasi aniqlandi. Umumiy holatda natijalarni hisobga olgan holda quyidagi xulosaga kelindi:

- 1) ingliz va o'zbek tili maqollari o'rtasidagi leksik – semantik farqlar;
- 2) ingliz tili antropotsentrik maqollar semantikasining murakkabligi;
- 3) ona tili interferensiya ta'siri;
- 4) ingliz tili antropotsentrik maqollarni o'qitish metodikasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

5) o‘zbek talabalarining ingliz tili maqollarining semantik xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarning past darajadaliği;



3-rasm. Bilish darajalarining umumiy ko‘rsatkichlari

Umuman olganda, ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarni bilish darajasi uchta OTM kesimida aniqlash kesim natijalariga ko‘ra o‘rtacha 63% ni tashkil etdi, bu esa filologik yo‘nalish talabalariga uchun ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarni o‘rgatish bo‘yicha maxsus mashqlar tizimini yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobini “**O‘qitish eksperimentini o‘tkazish: tashkillashtirish bosqichlari, sifat va statistik natijalari**” deb nomlanib, filologik yo‘nalishdagi 3-4 kurs o‘zbek auditoriyasi talabalariga ingliz tili antropotsentrik maqollarni o‘rgatishdagi mashqlar tizimi, o‘qitish eksperimentini o‘tkazishning metodikasi va bosqichlari hamda pedagogik tajriba-sinov natijalarining sifat va miqdor natijalarini o‘zida mujassam etgan.

Bobda o‘zbek talabalariga ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarni o‘rgatish bo‘yicha yaratilgan mashqlar tizimi tavsiflangan, yondashuvlar, texnologiya va metodlar, eksperimental o‘qitishning maqsad va vazifalari, uni tashkil etish va o‘tkazish bosqichlari keltirilgan.

Mashqlar tizimi talabalarni o‘qitish va o‘z-o‘zini rivojlantirish, tushunish ko‘nikmalarini oshirish, o‘z fikrini shakllantirish, kommunikativ bilim, ko‘nikma, malakalarni rivojlantirish uchun muhimdir.

Tadqiqotimiz davomida ingliz tili antropotsentrik maqollarni o‘qitishdagi ta’lim yondashuvlaridan *Content – based instruction (mazmunga asoslangan ta’lim)* yondashuvini asos qilib oldik. Mazmunga asoslangan ta’lim yondashuvi lingvistik birliklar darajasi bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni qanday qilib ifodalanganligini ham, har bir til ko‘nikmalari doirasida o‘rganilishini hisobga oladi. Masalan, mavzu tanlanadi, o‘qiladi, fikrlar yoziladi, o‘zgalar fikri tinglanadi va og‘zaki tarzda javob beriladi.

FSMU texnologiyasi munozarali masalalarni hal etish va o‘quv jarayonini bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni o‘z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlashga, o‘z fikrlarini boshqalarga yetkazishga va bahslashish madaniyatini o‘rgatishga yordam beradi. Inson xulq-atvori, his-

